

R. TURDIBOYEVA, D. ALIMOV

O'Z HUQUQLARINGIZNI BILASIZMI?

(450 SAVOLGA 450 JAVOB)
*O'smir va yoshlar uchun yuridik
ma'lumotnoma*



R. Turdiboyeva, D. Alimov

O‘Z HUQUQLARINGIZNI BILASIZMI?

(450 SAVOLGA 450 JAVOB)

O‘smir va yoshlar uchun yuridik ma‘lumotnoma

TOSHKENT
«VEKTOR-PRESS»
2011

УДК: 342-7(038)
ББК 67.404
Т88

Mas'ul muharrir:

A. X. Saidov – yuridik fanlar doktori, professor.

Taqrizchilar:

A. G'afurov – yuridik fanlar nomzodi;

M. Tillaboyev – yuridik fanlar nomzodi.

Turdiboyeva R.E.

O'z huquqlaringizni bilasizmi? (450 savolga 450 javob) O'smir va yoshlar uchun yuridik ma'lumotnoma. / R.E. Turdiboyeva, D. T. Alimov; mas'ul muharrir A.X. Saidov, – T.: «Vektor-Press», 2011. – 344 bet.

I. Alimov, D.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish muammolari o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturida keng o'quvchilar doirasiga ham, aholining ayrim guruhlariga ham mo'ljallangan ommabop ma'lumotnoma adabiyotlarni nashr etishni ko'paytirish va aholini yuridik axborotlar bilan ta'minlashni yaxshilash huquqiy madaniyatni oshirishning muhim yo'nalishi, deb ko'rsatilgan. Shu sababli mazkur risola yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish maqsadida tayyorlangan.

Risolada huquqning asosiy tarmoqlari bo'yicha yoshlarni qiziqtirgan hayotiy savollariga qonuniy javoblar tayyorlangan. 450 ta qiziqarli savollarga javoblar aniq huquqiy manbalar asosida, tushunarli va ravon bayon etilgan.

Risola nafaqat yoshlarga, balki o'qituvchilar, ota-onalar hamda huquq sohasiga qiziqadigan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ББК 67.404
УДК 342-7(038)

ISBN 978-9943-399-01-3

© R.Turdiboyeva, D.Alimov, 2011-y.

© «Vektor-Press» nashriyoti, 2011-y.

HUQUQ DUNYOSIGA SAYOHATGA MARHAMAT!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan ma'ruzasi, Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalash dasturini yaratishda poydevor bo'ldi. Ma'ruzada aytilgan fikrlar asosida mamlakatimizda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi jahon andozalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, istiqboldagi vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Umumiy ta'lim jamiyat rivojida zarur tayanch bo'lsa, huquqiy ta'lim-tarbiya demokratik huquqiy davlatning poydevoridir. Chunki huquqiy ta'lim va huquqiy madaniyat har qanday demokratik mamlakatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush kechirishi, xohish-irodasini ezgu maqsad va niyatlarni hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirishida muhim kafolatdir.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi barcha o'quv muassasalaridagi o'quvchilarga qonunlarimizni, birinchi navbatda, Konstitutsiyani chuqur o'rgatish va hurmat ruhini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda hozirgi kunda huquqiy ta'limning ahamiyati muhimdir. Huquqiy ta'lim-tarbiya asosida o'z huquqlarini va burchlarini yaxshi bilgan jamiyat a'zolarigina ijtimoiy hayotning hamma sohalarida ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo'ladi. Fuqarolarning huquq va burchlarini yaxshi

bilishidan faqat shaxslar manfaatdor bo'lmay, balki davlat ham manfaatdordir. Prezidentimiz I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida: **«Aholining huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratib berish huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo'nalishdir»**, – deb ta'kidlashlari ham shu boisdandir.¹

Bugungi kunda butun ta'lim tizimida huquqiy bilimlarni o'qitishni yaxshilash, takomillashtirish, yangi talabga javob beruvchi adabiyotlarni yaratishni nazarda tutadi.

Shu sababli, mazkur risola mualliflar tomonidan o'smir yoshlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishga yordam berish maqsadida, o'smirlarni qiziqtirgan qiziqarli va hayotiy savollarga javoblar tariqasida tayyorlangan. Unda o'smirlarning Konstitutsiyada, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Uy-joy kodeksi, Soliq kodeksi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi qonun, «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi qonun va O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga oid qator Nizomlarda o'smirlarga berilgan huquqlariga oid savol-javoblar jamlangan. Huquqning asosiy tarmoqlari bo'yicha javoblar 9 bobdan iborat bo'lib, oxirgi bobda turli huquq sohalari bo'yicha qiziqarli savollarga javoblar berilgan. Risolaga «Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro Konvensiya», «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi, «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari ilova qilingan.

¹I. Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari.//Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5.–T.: O'zbekiston, 1997–128-b.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchi yoshlarida huquqiy madaniyatni shakllantirish, uni o'rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatini qay darajada bo'lishligini baholashga, tasavvur qilishga imkon yaratadi. Shu bilan bir qatorda kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o'quvchilari shunday yoshdagi, o'qish davri o'smirlik davri bilan boshlanib, o'qish davri tugaguncha ular voyaga yetgan shaxsga aylanishadi. Bu davrda yoshlarning jamiyatda ijtimoiylashuv jarayoni tezlashadi, o'zligini anglash, «men»ligini namoyon etgisi keladi. Bunday holatda yoshlarni to'g'ri yo'naltirish, ularni qiziqtirgan savollariga javob topishiga yordam berish muhimdir.

Ushbu risola mualliflarning o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi o'quvchi yoshlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish muammolari bo'yicha bir necha yillik ilmiy tadqiqot izlanishlari natijasi desa ham bo'ladi. Chunki, mualliflar risolani tayyorlashda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchi yoshlari orasida o'tkazilgan so'rovnomalarda, uchrashuvlarda, seminarlarda ularni qiziqtirgan savollar asosida tayyorlashgan.

«O'z huquqingizni bilasizmi?» deb nomlangan ushbu risola nafaqat o'smir va yoshlarga, balki keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan va umid qilamizki ular tomonidan qiziqish bilan kutib olinadi.

A. X. Saidov, professor

1-bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASIDA
INSON VA FUQAROLARGA BERILGAN HUQUQ
HAMDA ERKINLIKLER

SAVOL: *Fuqarolarning konstitutsiyaviy maqomi qanday xususiyatlari bilan tavsiflanadi?*

JAVOB: O‘zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

– konstitutsiyaviy-huquqiy maqomni belgilovchi huquq, erkinlik va majburiyatlar har bir shaxs uchun teng bo‘lib, har kim o‘rnatilgan huquqlardan foydalanishda va majburiyatlarni o‘tashda teng yuridik imkoniyatga ega;

– konstitutsiyaviy va boshqa huquqiy normalarda mustahkamlangan huquq, erkinlik va majburiyatlar davlat tomonidan kafolatlanadi, muhofaza etiladi; ularni amalga oshirish davlat va fuqarolar tomonidan birdek mas’uliyat bilan ta’minlanadi;

– konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va majburiyatlar har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan baholanadi hamda kafolatlanadi;

– fuqaroning huquqlari, erkinlik va majburiyatlari mushtarak bir tizim sifatida mavjud bo‘lib, jamiyat hamda ijtimoiy munosabatlar rivojlangani sayin ular mutanosib tarzda kengayib va mazmunan teranlashib boradi;

– konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va majburiyatlar jamiyat va davlat taraqqiyotining har bir bosqichida uning zaruriy sharti, shuningdek shaxsning har tomonlama izchil kamol topishiga qat’iy zamin bo‘lib hisoblanadi;

– konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va majburiyatlar, bir tomondan, davlatning mohiyati va tabiatini, ikkinchi tomondan, jamiyatning madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy yetuklik darajasini aks ettiradi;

– konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va majburiyatlar o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy vazifasiga ko‘ra mushtarak yagonalik, tizimlilik va bir butunlik sifatlari bilan tavsiflanadi.

Konstitutsiyaviy, huquqiy maqom yuksak ijtimoiy qadriyat darajasidagi huquqiy voqelik bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi, fuqaroning davlatdagi nufuzli o‘rnini, ahamiyati va qadr-qimmatini aks ettiradi.

SAVOL: *Fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari ko‘lami qanday, ular turkumiga qaysi huquqlar kiradi?*

JAVOB: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi shaxsiy huquq va erkinliklar ro‘yxati insonning yashash huquqi bilan boshlanadi. «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir», deyiladi bosh qomusimizning 24-moddasida. Mazkur huquq insonning eng asosiy huquqi, uning munosib hayotining kafolatidir. Inson hayoti benazir ne‘matdir. Yashash huquqi insonning asosiy tabiiy huquqlaridan biridir. Buni ta‘minlash uchun davlat idoralari va jamiyat tuzilmalarining keng ko‘lamli serqirra faoliyati talab etiladi. Davlat mo‘tadil ijtimoiy siyosat yurgizish, qirg‘inbarot urushlardan bosh tortish, shaxsga qarshi jinoyatchilik bilan qat‘iy kurashish, har kimning qurbi yetuvchi tibbiy xizmatni tashkil etish, aholiga maqbul ekologik muhitni ta‘minlash va hokazolar orqali insonning yashash huquqini ro‘yobga chiqaradi.

Shaxsiy huquqlar tizimida insonning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi, turar joy daxlsizligi, yozishmalar va telefonda so‘zlashuvlarning sir saqlanish huquqlari alohida o‘rin tutadi. Asosiy qonunimiz har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini kafolatlaydi. Hech kim qonunsiz ravishda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas (25-modda). Shuningdek, hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (26-modda).

Shaxs daxlsizligi tabiiy huquqlar hisoblanib, hech kim zo'rlik bilan uning erkinligini cheklashga, shaxsni kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etishga haqli emas. Shaxsiy daxlsizlik aybsizlik prezumpsiyasi bilan uzviy bog'liq.

SAVOL: *O'lim jazosining qo'llanilishi insonlarning yashash huquqlarining buzilishiga olib kelmaydimi?*

JAVOB: Ma'lumki, yaqinlargacha mamlakatimizda, ayrim davlatlarda esa hali ham, jinoyatchilarga nisbatan eng og'ir jazo sifatida o'lim jazosi qo'llanilib kelinar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi Farmoniga ko'ra o'lim jazosi jinoiy jazo turi sifatida 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran butunlay bekor qilindi va u umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirildi. Mamlakatimizda o'lim jazosining bekor qilinishi insonning konstitutsiyaviy yashash huquqining amalda ta'minlanishiga olib keldi.

SAVOL: *Shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi nima?*

JAVOB: Aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga muvofiq, jinoiy yoki ma'muriy qonunbuzarlikda ayblanayotgan shaxs o'z aybsizligini o'zi isbotlashga majbur emas. Buni davlatning mas'ul mutasaddi idora va shaxslari o'z zimmasiga oladi. Ya'ni, sud, prokuratura, tergov idoralari va ularning xodimlari qonunda belgilangan tartib hamda usullar vositasida aybdor shaxsning aybini aniqlash va isbotlashga mas'uldirlar. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Ayblanuvchi himoyalani huquqi bilan ta'minlanadi. Tergov va sud jarayonining har qanday bosqichida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Bu konstitutsiyaviy qoidalar O'zbekiston

Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi, «Advokatura to'g'risida»gi qonun, «Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi qonunlar bilan ta'minlanadi va hayotga joriy etiladi.

SAVOL: *Insonning obro'siga putur yetkazganlik uchun ham qonunda jazo belgilanganmi?*

JAVOB: Konstitutsiyamizning 27-moddasiga ko'ra, har kim o'z sha'ni, qadr-qimmati va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş huquqiga ega. Mazkur huquqlar lozim bo'lgan taqdirda sud orqali amalga oshirilishi: muhofazalanishi hamda tiklanishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Fuqarolik kodeksining yangi bir qoidasi, ya'ni 1022-moddasiga ko'ra, shaxs qadr-qimmati va sha'niga yetkazilgan ma'naviy zararni ham moddiy qiymatda sud orqali undirish mumkin.

SAVOL: *Turar joy daxlsizligi deganda nima tushuniladi?*

JAVOB: Turar joy daxlsizligi huquqi fuqarolarning alohida konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanadi. Amaldagi qonunchilik bu huquqni real amalga oshirish va kafolatli ta'minlashning mexanizmini mustahkamlab qo'ygan. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 158–159-moddalarida belgilanganidek, fuqaroning turar joyida tintuv o'tkazish yoki uni uy-joyidan majburiy tarzda ko'chirish uchun sudning qarori bo'lishi shart.

SAVOL: *Fuqarolarning bir joydan ikkinchi joyga erkin ko'chish huquqi qaysi huquqiy normalar bilan tartibga solinadi?*

JAVOB: Konstitutsiyaning 28-moddasida davlatimiz fuqarolarining Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekistonga kelish va undan chiqib ketish huquqi mustahkamlangan. Fuqarolarning erkin harakatlanish huquqi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 6-yanvarda



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/5243> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/5243> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/5243>